



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНЫХ БИБЛИОТЕК В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Malikova Durдона

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi

Umumta'lim maktab kutubxona 9 rahbar va xodimlari kurs rahbari

E-mail: durdonamalikova12@gmail.com Tel: +998 94 194 96 19

Аннотация:

В данной статье рассматриваются инновационные подходы к совершенствованию деятельности школьных библиотек в условиях цифровой образовательной среды. Раскрываются вопросы внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в библиотечную практику, расширения электронных информационных ресурсов, использования электронных библиотек, аудиокниг и QR-кодов в образовательном процессе. Особое внимание уделено роли школьных библиотек в развитии культуры чтения учащихся, формировании навыков самостоятельного обучения и информационной грамотности. На основе анализа отечественного и зарубежного опыта обоснована необходимость модернизации деятельности школьных библиотек в соответствии с требованиями цифровой трансформации образования.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, школьная библиотека, инновационные подходы, культура чтения, учащиеся, электронная библиотека, аудиокниги, QR-код, информационные ресурсы, информационная грамотность, самостоятельное обучение, библиотечно-информационное обслуживание.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING SCHOOL LIBRARY ACTIVITIES IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract:

This article examines innovative approaches to improving school library activities in the context of the digital educational environment. It discusses the integration of modern information and communication technologies into library practice, the expansion of electronic information resources, and the use of electronic libraries, audiobooks, and QR code technologies in the educational process. Special attention is paid to the role of school libraries in developing students' reading culture, information literacy, and independent learning skills. Based on the analysis of national and international experience, the necessity of modernizing school library services in accordance with the requirements of digital transformation in education is substantiated.

Keywords: digital educational environment, school library, innovative approaches, reading culture, students, electronic library, audiobooks, QR code technology, information resources, information literacy, independent learning, library and information services.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTAB KUTUBXONALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Annotatsiya:

Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida umumta'lim maktab kutubxonalari faoliyatini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari tahlil



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

qilingan. Unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kutubxona amaliyotiga joriy etish, elektron axborot resurslarini kengaytirish, elektron kutubxonalar, audiokitoblar va QR-kod texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maktab kutubxonalarining o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, axborot savodxonligini shakllantirish va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini takomillashtirishdagi o'rnini ochib berilgan. Mahalliy va xorijiy tajribalar tahlili asosida ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida maktab kutubxonalarini faoliyatini modernizatsiya qilish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, umumta'lim maktab kutubxonasi, innovatsion yondashuvlar, kitobxonlik madaniyati, o'quvchilar, elektron kutubxona, audiokitoblar, QR-kod texnologiyasi, axborot resurslari, axborot savodxonligi, mustaqil ta'lim, axborot-kutubxona xizmati.

KIRISH.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega shaxslar etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda ta'lim tizimi bilan bir qatorda axborot-kutubxona muassasalari, xususan, umumta'lim maktablari kutubxonalarini ham muhim o'rin tutadi. Maktab kutubxonalarini o'quvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim ta'lim-tarbiya maskani hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va mutolaani keng targ'ib etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-sonli qaroriga muvofiq [1]¹ aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan “Kitob — ma‘rifat manbai” dasturi joriy etildi. Mazkur qarorda umumta‘lim muassasalarida “Jadidlar izidan” kitobxonlik klublarini tashkil etish, “Kitob burchagi”larni yaratish, “Kitob o‘qish soati”ni yo‘lga qo‘yish, eng ko‘p kitob o‘qigan o‘quvchilarni rag‘batlantirish hamda kitobxonlik bo‘yicha reyting tizimini joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Ta‘lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida maktab kutubxonalari oldiga ham yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Xususan, kutubxonalarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta‘minlash, elektron kutubxonalarni rivojlantirish, elektron kataloglar va audiokitoblar fondini kengaytirish, QR-kod texnologiyalarini joriy etish hamda o‘quvchilarning axborot resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqamli ta‘lim muhitida umumta‘lim maktab kutubxonalari faoliyatini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlarini o‘rganish, ilg‘or tajribalarni tahlil qilish hamda kutubxona xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktab kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hamda mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari pedagogika va kutubxonashunoslik sohalarida dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son qarori. “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2026.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ko'rsatadiki, zamonaviy maktab kutubxonasi an'anaviy kitob saqlash maskanidan o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi axborot-ta'lim markaziga aylanib bormoqda.

Maktab kutubxonalarining ta'lim jarayonidagi o'rni xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilgan. Xususan, Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyalari va institutlari federatsiyasi (IFLA) hamda YUNESKO [2]² tomonidan qabul qilingan Maktab kutubxonasi manifestida maktab kutubxonasi axborot va bilimga asoslangan zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va g'oyalarni taqdim etuvchi muhim ta'lim muassasasi sifatida baholangan. Manifestda maktab kutubxonasi o'quvchilarda uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishi, ijodiy fikrlashni rivojlantirishi hamda ularning mas'uliyatli fuqaro sifatida kamol topishiga xizmat qilishi ta'kidlangan. Xorijiy tadqiqotlar natijalari ham maktab kutubxonalarining o'quvchilar rivojlanishidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. AQShning 19 ta shtati va Kanadaning bir provinsiyasida o'tkazilgan 60 dan ortiq tadqiqotlar natijalari maktab kutubxonalari faoliyati bilan o'quvchilarning akademik muvaffaqiyati o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan [3]³. Todd, Kuhlthau va OELMA tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda samarali faoliyat yurituvchi maktab kutubxonalari o'quvchilarning o'qish savodxonligi va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. M. Lonsdeyl tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa maktab kutubxonalarining o'quvchilar o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [4]⁴.

² IFLA/UNESCO School Library Manifesto. The School Library in Teaching and Learning for All. – Paris: UNESCO, 1999.

³ Shamuratova N.I. Maktab kutubxonachisining bugungi axborot asridagi ijtimoiy vazifalari // O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari. Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. – 2024. – № 3(30). – B. 68–71.

⁴ Clyde, L.A. "The Schole Lybrarie: Images From Our Past" [School libraries in England and the U. S.]. School Libraries Worldwide v. 5 no. 1 (January 1999) p. 1–16.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

MAKTAB KUTUBXONALARI FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI

Bugungi kunda O‘zbekistonda maktab kutubxonlari yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamoloti, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida maktab kutubxonalarining faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda zamonaviy axborot resurslari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra [5]⁵, 2024-yilda respublikada kutubxonalar, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni 14 999 tani tashkil etib, 2023-yilga nisbatan qariyb 15 foizga oshgan. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatimizda axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy natijalaridan biri hisoblanadi. Hududlar kesimida Farg‘ona viloyati, Samarqand viloyati va Qashqadaryo viloyati kutubxonalar soni bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda.

So‘nggi yillarda maktab kutubxonalarining faoliyatiga yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son qarorida aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Qarorga muvofiq umumta’lim muassasalarida “Jadidlar izidan” kitobxonlik klublarini tashkil etish, ta’lim muassasalarida “Kitob burchagi”larni yaratish, “Kitob o‘qish soati”ni yo‘lga qo‘yish hamda kitobxonlik bo‘yicha ichki reyting tizimini joriy etish nazarda tutilgan. Mazkur chora-tadbirlar maktab kutubxonalarining ta’lim va tarbiya jarayonidagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Kutubxonalar, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: SIAT Statistika ma’lumotlari



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Hozirgi kunda maktab kutubxonalarining asosiy vazifalari faqatgina kitob fondini saqlash va kitob berish bilan cheklanib qolmayapti. Ular o'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirish, axborot savodxonligini rivojlantirish, mustaqil izlanish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini tarkib toptirishga yo'naltirilmoqda. Shu jihatdan zamonaviy maktab kutubxonasi ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ta'lim tizimining raqamlashtirilishi maktab kutubxonalarini faoliyatiga ham yangi talablarni qo'yimoqda. Elektron kutubxonalar, audiokitoblar, elektron kataloglar, QR-kod texnologiyalari va boshqa raqamli xizmatlarni joriy etish orqali o'quvchilarning axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati [6]⁶ ortib bormoqda. Ayniqsa, maktab kutubxonalarini yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash, elektron resurslar fondini boyitish hamda kutubxona xizmatlarini raqamlashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunga qaramasdan, ayrim maktab kutubxonalarida fondlarning eskirishi, elektron resurslarning yetarli emasligi, zamonaviy texnik vositalarning cheklanganligi hamda o'quvchilarni kitobxonlikka jalb etish bo'yicha innovatsion faoliyatning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi kabi muammolar mavjud. Mazkur holatlar maktab kutubxonalarini faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4467-son qarori. "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 30.09.2019



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

XORIJIY TAJRIBA

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida maktab kutubxonalarida ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ular nafaqat o'quvchilarni adabiyotlar bilan ta'minlash, balki axborot savodxonligini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va tadqiqotchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash vazifalarini ham bajaradi. Shu sababli ko'plab davlatlarda maktab kutubxonalarini modernizatsiya qilish va ularning faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktab kutubxonalarining ta'lim tizimidagi o'rni xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilgan. Xususan, Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyalari va institutlari federatsiyasi (IFLA) hamda YUNESKO tomonidan qabul qilingan Maktab kutubxonasi manifestida maktab kutubxonasi axborot va bilimga asoslangan zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va g'oyalarni taqdim etuvchi muhim ta'lim muassasasi sifatida baholangan. Manifestda maktab kutubxonasi o'quvchilarda uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishi, ijodiy fikrlashni rivojlantirishi hamda mas'uliyatli fuqaro sifatida kamol topishiga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Buyuk Britaniya tajribasida maktab kutubxonalarida o'quvchilarning tadqiqotchilik va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, Amesbury maktabi o'qituvchisining fikricha [6]⁷, kutubxona faqat kitob o'qiladigan joy emas, balki o'quvchilarning izlanish olib borishi, yangi bilimlarni kashf etishi va hayotni o'rganishi uchun qulay muhit hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy maktab kutubxonalarida yorug' va qulay o'quv muhiti, bolalar

⁷ Ahlfeld K. (2021). School Librarians to Admire: Cicely Lewis Models Responsive Librarianship. *Journal of Library Administration*, 61(8), 1023–1027. <https://doi-org.library3.webster.edu/10.1080/01930826.2021.1984148>



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

yoshiga mos jihozlar, stol o'yinlari, konstruktorlar hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi.

Janubiy Koreya, Singapur va Finlyandiya kabi davlatlarda maktab kutubxonalari raqamli ta'lim muhitining muhim elementi sifatida qaralib, maktab kutubxonalari faqat kitob beruvchi maskan emas, balki o'quvchilarning axborot savodxonligi, media madaniyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim markazi sifatida faoliyat yuritadi.. Ushbu mamlakatlarda elektron kutubxonalar, audiokitoblar, raqamli ma'lumotlar bazalari va onlayn ta'lim platformalari kutubxona xizmatlarining ajralmas qismiga aylangan. Natijada o'quvchilar axborot resurslaridan mustaqil foydalanish, ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini erta yoshdan egallaydilar.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maktab kutubxonasi ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, axborot savodxonligini shakllantirish va mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tajribalarni o'rganish va ularning ilg'or jihatlarini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish maktab kutubxonalari faoliyatini yanada samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Maktab kutubxonalari faoliyatini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari:

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari qatori maktab kutubxonalari faoliyatiga ham yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Zamonaviy maktab kutubxonasi an'anaviy kitob fondini saqlash va foydalanuvchilarga taqdim etish bilan cheklanib qolmay, o'quvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, mustaqil ta'lim olish faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi hamda raqamli resurslardan samarali



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

foydalanish imkoniyatlarini yaratuvchi innovatsion axborot-ta'lim markazi sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Jadval 1. Raqamli va an'anaviy kutubxona xizmatlarini qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	An'anaviy kutubxona	Raqamli kutubxona
Kitob qidirish	Kartochkali katalog	Elektron katalog
Foydalanish vaqti	Kutubxona ish vaqtida	24/7
Resurs turi	Bosma adabiyotlar	Elektron va audiokitoblar
Foydalanish usuli	Kutubxonaga kelib	Masofadan turib
Monitoring	Qo'lda	Avtomatlashtirilgan
Axborot olish tezligi	Nisbatan sekin	Tezkor

Jadval 1. Raqamli va an'anaviy kutubxona xizmatlarini qiyosiy tahlili

Raqamli kutubxona xizmatlari an'anaviy kutubxona xizmatlariga nisbatan foydalanuvchilar uchun kengroq imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, elektron kataloglar yordamida kerakli adabiyotlarni tezkor qidirish, elektron va audiokitoblardan sutkaning istalgan vaqtida foydalanish hamda masofadan turib axborot resurslariga murojaat qilish imkoniyati mavjud. Shuningdek, kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish orqali fond harakati va foydalanuvchilar statistikasi ustidan monitoring olib borish samaradorligi oshadi. Biroq an'anaviy kutubxonalar ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bosma adabiyotlar bilan ishlash, kitobxon va kutubxonachi o'rtasidagi bevosita muloqot, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish kabi jihatlar an'anaviy kutubxonalarning ustun tomonlari



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy maktab kutubxonalarida an'anaviy va raqamli xizmatlarni uyg'unlashtirish, ya'ni gibril kutubxona modelini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Natijada o'quvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin bo'ladi.

Maktab kutubxonalarini faoliyatini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri elektron kutubxonalarini rivojlantirish hisoblanadi. Elektron kutubxonalar orqali o'quvchilar darsliklar, badiiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop nashrlar hamda qo'shimcha ta'lim resurslaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa axborotdan foydalanish tezligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim resurslaridan foydalanish qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kutubxona xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Elektron kutubxonalar, audiokitoblar, QR-kod texnologiyalari, elektron kataloglar va onlayn tadbirlar kutubxona xizmatlarini zamonaviylashtirishning muhim vositalari hisoblanadi. Quyidagi jadvalda mazkur innovatsion yondashuvlarning afzalliklari va ular orqali erishiladigan natijalar keltirilgan.

Jadval 2. Innovatsion yondashuvlarning afzalliklari

Innovatsion texnologiya	Afzalligi	Natijasi
Elektron kutubxona	Tezkor foydalanish	Axborotga erkin kirish
Audiokitob	Mobil foydalanish	Mutolaa qamrovi kengayadi
QR-kod	Bir zumda yuklash	Qulaylik oshadi
Elektron katalog	Tez qidiruv	Vaqt tejiladi
Elektron formulyar	Avtomatlashtirish	Hisob-kitob soddalashadi
Onlayn tadbirlar	Masofaviy ishtirok	Kitobxonlik faollashadi



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni maktab kutubxonalari faoliyatiga joriy etish kutubxona xizmatlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, elektron kutubxonalar va elektron kataloglar axborot resurslariga tezkor kirish imkoniyatini yaratib, o'quvchilarning vaqtini tejashga xizmat qiladi. Audiokitoblar va onlayn tadbirlar esa kitobxonlik qamrovini kengaytirish, o'quvchilarning mutolaaga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda masofadan turib ta'lim olish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, QR-kod texnologiyalari va elektron formulyarlar kutubxona xizmatlarini avtomatlashtirish, foydalanuvchilarga qulaylik yaratish hamda kutubxona fondidan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli innovatsion texnologiyalarni maktab kutubxonalari faoliyatiga keng joriy etish o'quvchilarning axborot savodxonligini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlarning yana bir muhim yo'nalishi audiokitoblar fondini kengaytirish bilan bog'liq. Audiokitoblar o'quvchilarning mutolaa jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, mobil qurilmalar orqali audiokitoblardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi yoshlarning axborot resurslariga murojaat qilish faolligini oshiradi. Maktab kutubxonalarida elektron katalog va elektron kitobxon formulyarlarini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Elektron kataloglar foydalanuvchilarga zarur adabiyotlarni tez va qulay qidirish imkonini bersa, elektron formulyarlar kitoblarni berish va qaytarish jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa kutubxonachilar mehnatini yengillashtirish bilan birga kutubxona faoliyatining samaradorligini oshiradi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Jadval 3. Maktab kutubxonalarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish shakllari

Faoliyat turi	Maqsadi	Kutilayotgan natija
 Kitob taqdimotlari	 Yangi adabiyotlarni targ'ib qilish	 Kitobga qiziqish ortadi
 Ijodiy uchrashuvlar	 Adiblar bilan muloqot	 Mutolaa motivatsiyasi kuchayadi
 Mutolaa tanlovlari	 Kitobxonlikni rag'batlantirish	 Faol kitobxonlar soni ortadi
 Kitob yarmarkalari	 Adabiyotlarni ommalashtirish	 Kitob mutolaasi kengayadi
 Adabiy kechalar	 Ma'naviy tarbiya	 Kitobxonlik madaniyatini rivojlanadi

Jadval 3.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida innovatsion loyihalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "Faol kitobxon o'quvchi", "Faol kutubxonachi" ko'rik-tanlovlari, mutolaa marafonlari, kitob taqdimotlari, yozuvchi va shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlar, onlayn kitobxonlik loyihalari hamda virtual tadbirlarni tashkil etish o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, mutolaa madaniyatini rivojlantirish va ularni mustaqil fikrlashga undashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. maktab kutubxonalarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan turli shakldagi tadbirlar o'quvchilarning mutolaaga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kitob taqdimotlari yangi adabiyotlarni targ'ib qilish orqali o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini kuchaytirsa, adiblar bilan ijodiy uchrashuvlar ularning mutolaa motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Adabiy kechalar, bahs-munozaralar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quvchilarning estetik didi, ma'naviy dunyoqarashi hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli maktab kutubxonalarida mazkur tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish o'quvchilarning mutolaa faolligini oshirish, axborot savodxonligini rivojlantirish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jadval 4.

Innovatsion kutubxona tadbirlarining o'quvchilarga ta'siri

Tadbir		Shakllanadigan ko'nikma	
1	 Kitobxonlar klubi	 Muloqot madaniyati	
2	 Munozara va debatlar	 Tanqidiy fikrlash	
3	 Mutolaa marafoni	 Mustaqil o'qish	
4	 Adabiy viktorinalar	 Bilimlarni mustahkamlash	
5	 "Faol kitobxon o'quvchi" tanlovi	 Rag'bat va motivatsiya	

Jadval 4.

Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, maktab kutubxonalarida tashkil etiladigan innovatsion tadbirlar o'quvchilarning nafaqat kitobxonlik faolligini, balki turli kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, kitobxonlar



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

klublari o'quvchilarning fikr almashish, jamoada ishlash va muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Munozara va debatlar esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, o'z fikrini asoslab berish va tahliliy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mutolaa marafonlari o'quvchilarning mustaqil o'qish odatini shakllantirish, muntazam mutolaa qilishga bo'lgan ehtiyojini oshirish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiy viktorinalar esa o'quvchilarning o'qilgan asarlar yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, xotira va tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, "Faol kitobxon o'quvchi" tanlovlari o'quvchilarni kitob mutolaasiga rag'batlantirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son qarorida eng ko'p kitob o'qigan o'quvchilarni rag'batlantirish mexanizmlarining belgilanishi maktab kutubxonalarida kitobxonlik faoliyatini yanada faollashtirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Demak, maktab kutubxonalarida innovatsion tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, axborot savodxonligini oshirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Raqamli ta'lim muhitida umumta'lim maktab kutubxonalarini faoliyatini takomillashtirish ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy maktab kutubxonasi nafaqat axborot resurslarini saqlovchi muassasa, balki o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantiruvchi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

rivojlantiruvchi hamda axborot savodxonligini oshiruvchi innovatsion ta'lim markazi sifatida faoliyat yuritishi zarur. Maqolada amalga oshirilgan tahlillar natijasida maktab kutubxonalarini raqamlashtirish, elektron kutubxonalar va elektron kataloglarni joriy etish, audiokitoblar fondini kengaytirish, QR-kod texnologiyalaridan foydalanish hamda kutubxona xizmatlarini avtomatlashtirish o'quvchilarning axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi aniqlandi. Shuningdek, kitobxonlar klublari, mutolaa marafonlari, adabiy viktorinalar, kitob taqdimotlari va "Faol kitobxon o'quvchi" kabi innovatsion tadbirlar o'quvchilarning mutolaa faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash va muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi.

O'rganilgan xorijiy tajribalar maktab kutubxonalarini zamonaviy axborot-ta'lim markazlari sifatida rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son qarorida belgilangan vazifalar maktab kutubxonalarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va o'quvchilarni mutolaaga faol jalb etish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu asosda maktab kutubxonalarini faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida kutubxona xizmatlarini raqamlashtirish, elektron resurslar bazasini boyitish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, kitobxonlikni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish hamda kutubxonachilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Natijada maktab kutubxonalarini o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-ta'lim markazlariga aylanishi mumkin.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son qarori. “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2026.
2. IFLA/UNESCO School Library Manifesto. The School Library in Teaching and Learning for All. – Paris: UNESCO, 1999.
3. Shamuratova N.I. Maktab kutubxonachisining bugungi axborot asridagi ijtimoiy vazifalari // O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarлари. Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal. – 2024. – № 3(30). – B. 68–71.
4. Clyde, L.A. "The Schole Lybrarie: Images From Our Past" [School libraries in England and the U. S.]. School Libraries Worldwide v. 5 no. 1 (January 1999) p. 1–16.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Kutubxonalar, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: SIAT Statistika ma’lumotlari
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4467-son qarori. “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 30.09.2019
7. Ahlfeld K. (2021). School Librarians to Admire: Cicely Lewis Models Responsive Librarianship. Journal of Library Administration, 61(8), 1023–1027. <https://doi-org.library3.webster.edu/10.1080/01930826.2021.1984148>